IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHDA TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI OSHIRISHNING ASOSIY JIHATLARI

Farmanov Erkin Alimovich

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
Vengriya qishloq xo'jaligi va tabiiy fanlar universiteti tayanch doktoranti
e-mail: e.farmanov.bsu@gmail.com

K E Y W O R D S

transport xizmatlari,xizmatlari sifati, raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, innovatsiya, transport tizimlari

A B S T R A C T

Ushbu maqolada iqtisodiyotni transformatsiyalashda transport xizmatlari sifatining asosiy jihatlarining ilmiy asoslari tahlil qilingan bo'lib, asosan xorijlik va mahalliy olimlarning "xizmatlar", "transport xizmatlari" va "transport xizmatlari sifati" tushunchalariga berilgan ta'riflari, shuningdek, raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida transport xizmatlarining rivojlanish bosqichlari, raqamli texnologiya va innovatsiyalardan foydalanish omillari, hamda shart-sharoitlari keltirib o'tilgan.

1. Kirish.

So'nggi yillarda mamlakatimizda kuzatilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimning transformatsiyasi raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va joriy etilishi bilan uzviy bog'liq. Raqamli iqtisodiyot vositasi yordamida transport xizmatlari sifatini oshirish, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar sanoatini rivojlantirish jarayonlarining samaradorligini oshishiga hamda mamlakatning ichki muammolarining yechimini hal qilishiga turtki bo'ladi.

Ma'lumki, hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida transport xizmatlar bozorida xizmat ko'rsatuvchi mahalliy va xorijiy kompaniyalarning ahamiyati muhim hisoblanib, xizmat ko'rsatish bozorida transport sanoati bilan shug'ullanadigan kompaniyalarning rentabelligi oshirish uchun samarali bozor iqtisodiyotidan kelib chiqgan. Hamda, xizmat ko'rsatish operatsiyalari, qulay yoqilg'i va mehnat xarajatlariga bog'liq bo'lgan holda, bunday yirik kompaniyalar keng qamrovli transport xizmatlarini ko'rsatish orqali makro darajadagi iqtisodiy ko'rsatgichga ega bo'lsa, mahalliy va minqaviy hududlarga mikro darajadagi kompaniyalar xizmat ko'rsatish asnosida raqobatlasha oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF – 158 sonli farmoni, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi shular jumlasidan bo'lib, ushbu masalalar "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da o'z ifodasini topgan, hamda 2023-yil 16-fevraldagi "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-59 sonli qarorlarida "O'zbekiston Respublikasining global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirish, o'rta va yirik shaharlarda aholisi 300 mingdan ko'p bo'lgan tumanlarda transport xizmatlarini rivojlantirish, transport sohasida real iqtisodiyot sektori korxonalarida boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirishda axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, 2026-yil 1-iyungacha shaharlarda avtobus yo'nalishlarining yangi tarmog'i joriy etilishini, avtomatlashtirilgan to'lov tizimi va avtomatlashtirilgan dispetcherlik xizmatining bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish, shuningdek, transport tizimini kompleks rivojlantirish uchun dasturiy modellashtirish tizimlaridan foydalanish mexanizmlarini amalga oshirish" vazifasi yuklatilgan [1;2;3]

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotida raqamli texnologiyalar yanada mukammal jamiyatni shakllantirish va iqtisodiyot tarmoqlarida sifatli islohotlarini amalga oshirish, hamda, iqtisodiyotni raqamli transformatsiyalash jarayonida transport tarmoqlarining samarali faoliyatini olib borish har qanday mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining barqarorligi, aholi

(cc) BY

farovonligining turmush tarzi, milliy xavfsizlik ta'minlashida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Global Covid-19 pandemiyasi raqamli texnologiyalari va iqtisodiyotning raqamli sektorini raqobatbardoshligini oshirishga, transport tarmog'ida turli raqamli yechimlar samaradorligini yaqqol ko'rsatdi, buning natijasida axborot va raqamli infratuzilmani jadal rivojlandi. Bu esa o'z navbatida, transport-logistika majmualaridan havo yo'llari, quruqlik va suvda xizmat ko'rsatuvchi barcha yo'llovchi tashiydigan transport vositalari, shuningdek, yuk tashish va saqlash kabi xizmatlarni raqamli iqtisodiyot vositalaridan foydalanib oshirish, raqamli transformatsiya jarayonlariga va raqamli texnologiyalarning yordamiga murojaat etdi. [4;5].

2. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida transport xizmatlari bozori jahon xizmatlari bozorining mustaqil sohasi sifatida iqtisodiyotning uchinchi sektoriga aylandi. Jahon xizmatlar bozorining rivojlangan davlatlarda YAIMidagi ulushi 60-80 foizini tashkil etsa [6], mamlakatimizda ushbu ko'rsatkich 30-40 foizni tashkil etmoqda, bu esa rivojlangan mamlakatlarga nisbatan juda past natijani ko'rsatib bermoqda. Biroq, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida xizmatlar bozorini jadal rivojlantirish, yangi xizmatlar va internet savdosi, transport, moliyaviy, aloqa va axborotlashtirish, ta'lim va boshqa xizmat turlarni kengayishining asosiy omil sifatida baholanmoqda.

Iqtisodiyotni raqamli transformatsiyalashda transport xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan muammolar, shunigdek, xizmatlar, transport xizmati va transport xizmatlari sifati tushunchalariga har tomonlama o'rgangan xorijlik va mahalliy olimlardan Adam Smit, Jon Styuart Mill, Alfred Marshall, Jan Batist Sey, Karl Marks, F. Kotler, Genri Assael, John Whitelegg, Jean-Paul Rodrigue, Karel Martens, Susan Handy, David A. Hensher, Ilina Ye.A., Shinkarenko V.G., Romanovich J.A., S. Yu. Morozova, B.H.Qo'ziboyev, G.J. Pirniyazov[7], A.N. Raximov, M.A. Ochilov[8] va boshqalar ushbu mavzuni yoritishda salmoqli hissa qo'shgan.

Tadqiqot davomida "transport xizmati" va "transport xizmatlari sifati" tushunchalarini yoritib berishdan avval, "xizmat" tushunchasiga e'tibor qaratildi. Bugungi kunda, iqtisodiy adabiyotlarda "xizmat" tushunchasining turli talqinlarini topish mumkin, biroq yaxlit qabul qilingan yagona ta'rif mavjud emas. Shuning uchun, "xizmat" atamasiga chet el va mahalliy olimlar tomonidan berilgan fikr mulohazalariga alohida e'tibor qaratishga lozim tutildi. Bunda, xizmatlar zamonaviy iqtisodiyotning asosi va jahon iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib, asosan xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti sifatida tavsiflanadi. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shib, iste'molchi va biznes yurituvchilar uchun qiymat beradi. Odatda xizmatlar to'lov yoki qiymatning qandaydir shakl evaziga taklif qilinadigan nomoddiy faoliyat shaklida bo'lib, ular ko'pincha jismoniy shaxslar, korxonalar yoki jamoalarning muayyan ehtiyojlari yoki talablarini qondirish uchun taqdim etiladi.

Ayniqsa, "xizmat" atamasiga Shotlandiyalik iqtisodchi va faylasuf Adam Smit 1776-yilda "xalqlarning boyligi" nomli asarida xizmatlar g'oyasini iqtisodiy faoliyatining bir qismi sifatida muhokama qilgan. Olim mehnatni "samarali" va "samarasiz"larga ajratib, bunda moddiy tovarlarni va nomoddiy tovarlarga bo'linishini ta'kidlaydi[9].

Britaniyalik iqtisodchi olim Alfred Marshall "iqtisodiyot tamoyillari" nomli asarida foydalilik tushunchasi, inson xoxish istaklari va ejtiyojlarni qondirishdagi xizmatlarning ahamiyati to'g'risida fikr bildirgan. Hamda, iqtisodiyotda moddiylik va xizmatlarning muhimligini ta'kidlaydi[10]. Biroq, zamonaviy iqtisodiy faoliyat sifatida "xizmat" atamasi 1803-yilda klassik maktabi namoyondasi fransuz iqtisodchi olim Jan Batist Sey birinchi marta fanga muommalaga kiritgan bo'lib, unda xizmatlarni nafaqat insonlar tomonidan, va qolaversa tabiat kuchi va jismlar tomonidan amalga oshirilishini e'tirof etadi[11].

Mashhur zamonaviy marketing nazariya asoschisi F.Kotler "xizmat - bu bir tomon boshqasiga taklif qilishi mumkin bo'lgan, mohiyatan nomoddiy shaklda va hech narsaga egalik qilishga olib kelmaydigan faoliyat yoki manfaatdir. Uning ishlab chiqarilishi mahsulot bilan bog'liq bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin[12].

Xizmat ko'rsatish va xizmatlar faoliyatining muammolari bo'yicha Marksistik iqtisodiy maktab vakili, nemis iqtisodchisi Karl

(cc) BY

Marks "xizmat" atamasiga ikki xil ko'rinishda e'tirof etib, bunda keng va tor ma'nolarda kelishini ta'kidlaydi. Keng ma'noda: xizmatlar iste'moli uchun mo'ljallanmagan mehnat natijalarining turlicha ko'rinishda paydo bo'lishida insonlar, korxona va hukumatning turli ehtiyojlarini qondirishi bilan ularga xizmat ko'rsatishiga asoslangan bo'lsa, tor ma'noda: ushbu tushuncha iste'mol qiymati bo'lib, unda faoliyat shakli sifatida ko'rishga ega bo'ladi. Nazariy jihatdan olinadigan bo'lsak, "xizmatlar" atamasi markscha tahliliy doirasida keltirmagan. Hamda, uning davrida xizmatlar sohasi iqtisodiy faoliyatining bir kichik faoliyat turi shaklida namoyon bo'lgan xolos.

Umuman olganda, xizmat - bu ma'lum bir ehtiyoj yoki istakni qondirish uchun bir tomon (xizmat ko'rsatuvchi)dan boshqa tomonga (mijoz yoki iste'molchiga) taqdim etiladigan nomoddiy harakat faoliyatidir. Bunda, moddiy mahsulotlardan farqli o'laroq, xizmatlar ushlab turish yoki egalik qilish mumkin bo'lgan moddiy tovarlar emas, balki ular qiymatni ta'minlaydigan va ma'lum bir talabga javob beradigan faoliyatlar, o'zaro ta'sirlar yoki tajribalarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi "xizmat" atamasiga bildirilgan fikr mulohazalaridan kelib chiqib, "transport xizmati" va "transport xizmatlari sifati" tushunchalariga batafsilroq to'xtalishga maqsad qilindi.

Ya'ni, mashhur britaniyalik olim John Whitelegg transport xizmati - turli tartiblar va infratuzilmalardan foydalangan holda odamlar va tovarlarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishni o'z ichiga oladi. Ushbu xizmatlar samarali, xavfsiz va barqaror harakatlanish yechimlarini taqdim etishga qaratilgan bo'lib, transport tizimlarini rejalashtirish, foydalanish va boshqarishni o'z ichiga oladi. Transport geografi Jean-Paul Rodrigue o'zining ilmiy tadqiqotlarida "Transport xizmati – yo'lovchilar, yuklar va ma'lumotlarning harakatlanishini ta'minlaydigan faoliyat, tarmoqlar va tizimlardir. Ushbu xizmatlar jismoniy infratuzilmani, transport vositalarini, logistika va operatsion jarayonlarni o'z ichiga olib, ular bilan birgalikda insonlar va tovarlarning harakatchanligini ta'minlaydi [13].

Transport sohasi bo'yicha tadqiqotchi olim Karel Martens "Transport xizmati - insonlar va tovarlarning harakatlanishini osonlashtiradigan, borish-kelish manzillari bilan bog'laydigan uyushgan faoliyat"dir [14]- deb ta'kidlaydi. Olim transport xizmatlarni uzluksiz va samarali mobillik yechimlarini taqdim etishda ishtirok etadigan infratuzilma, transport vositalari va boshqaruv jarayonlarini keltirib o'tadi.

Transport tizimlarini loyihalashtiruvchi olim Susan Handy "Transport xizmati – transport majmuasi va tizimlari yordamida insonlar va tovarlarning belgilangan manzilga yetkazish va eltishni ifoda etsa, hamda, ushbu xizmatlar jismoniy shaxslar va korxonalarning sayohat ehtiyojlarini qondirish uchun infratuzilma, transport vositalari, rejalashtirish va axborot tarqatish kabi muvofiqlashtirishlarni o'z ichiga oladi" [15].

Rus olimlaridan Shikarenko Vladimir Grigoryevich ta'kidlashicha umuman transport va avtotransport xizmati: yuklarni tashishda – taqdim etish jarayonlari natijasi bo'lsa, yo'llovchilarni tashishda - uni taqdim etish jarayoni va natijasidir. Ya'ni bunda, xizmatlarning asosiy belgilarining mohiyatiga aniqlik kiritish bo'lsa, xizmatlar xususiyatlarning namoyon bo'lish natijasi sifatida yuzaga keladigan marketing faoliyatini aniqlashdir [16].

Rossiya Federatsiyasining davlat standarti GOST R51006-96 "Transport xizmatlari. Atamalar va ta'riflar" da keltirishicha transport xizmati - transport xizmati ko'rsatuvchi tashkilotning belgilangan standartlar va talablarga muvofiq yo'lovchi, yuk jo'natuvchi va qabul qiluvchining tashish ehtiyojlarini qondirish faoliyati natijasidir [17].

O'zbekistonlik olimlardan esa B.H.Qo'ziboyev transport xizmati-havo yo'llarida, quruqlikda va suvdagi barcha yo'lovchi va yuk tashish xizmatlarini qamrab oluvchi murakkab iqtisodiy tizim hisoblanadi" – deb ta'rif bergan [18].

Oddiy so'z bilan aytganda, transport xizmati – zamonaviy jamiyatning kundalik hayotidagi dinamik va muhim tarkibiy qismi bo'lib, unda xizmatlar: insonlarni, tovarlarni va ma'lumotlarning geografik masofalar bo'ylab harakatlanishini osonlashtiradigan tizim, rejim va vositalarning murakkab tarmog'ini o'z ichiga oladi. Harakatlanish ehtiyojidan kelib chiqqan holda, transport xizmatlari ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning o'zaro aloqalari va madaniy almashinuvlari asosini tashkil qiladi.

(cc) BY

Bilamizki, sifat murakkab toifalardan biri bo‘lib, asosan biror narsaning xususiyatlari, sifatlarini yoki uni mukammal, qimmatli va maqbul qiladigan xususiyatlarini tasvirlash uchun ishlatiladi. Yuqorida olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar-mulohazalarini chuqur o‘rganib, xorij va mahalliy manbalarini tahlil qilgan holda bizning fikrimizcha transport xizmatlari sifati – yo‘lovchi, yuk tashish yoki transport ekspeditsiyasining xizmatlarni olib borish jarayonida yo‘lovchilar, yuk jo‘natuvchilar va qabul qiluvchilarning ehtiyojlarini qondirishga yaroqliligini ko‘rsatkich darajali xususiyatlar to‘plamidir.

3.Tahlil va natijalar

Transport sohasi mamlakat iqtisodiyoti va jamiyatining asosiy tarmoqlari sifatida, unda o‘sish va bandlikka yuqori ta’sir ko‘rsatmoqda. Yevropa ilm-fan xizmati komissiyasining (The European Commission’s science and knowledge service) ma’lumoti bo‘yicha transport sohasida 10 millionga yaqin kishi faoliyat ko‘rsatmoqda va jahon yalpi ichki mahsulotdagi ulushining 5 foizini tashkil etmoqda [19;20]. Tashish va saqlash kabi logistika Yevropa kompaniyalari uchun tayyor mahsulot narxining 10-15 foizini tashkil qiladi. Hamda, transport xizmatlarining sifati, odamlarning hayot sifatiga katta ta’sir ko‘rsatishi bilan alohida ajralib turadi.

Transport uy xo‘jaliklari xarajatlarini asosiy unsurlaridan biri bo‘lib, transport tovarlar va xizmatlari uchun o‘rtacha har bir uy byudjetining taxminan 13 foizi sarflanib, unda transport xizmatlar bozorini shakllantirish va rivojlantirish zarurligini belgilab berishligini ko‘rsatadi [21].

Research and Markets tahliliy agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda jahon transport va logistika xizmatlari bozorining hajmi 2021-yilga nisbatan 5,8 foizga oshgani va 10115.6 milliard dollar miqdorida bo‘lgan. 2023-yilda transport va logistika xizmatlari bozori 9407.5 millard dollarga, 2024-yilda esa 11.26 trillion dollarga tenglashdi va bu ko‘rsatkich 2034-yilgacha barqaror o‘shishini davom etib, yillik 6,3 foizga o‘sib, 20.74 trillion dollarga teng bo‘lishini prognoz qilinmoqda [22;23]. Jahon transport xizmatlari bozorini 1/4 qismi ya’ni 23 foizini Amerika Qo‘shma Shtatlari, 19 foizini Yevropa mamlakatlari va 15 foizini Xitoy Xalq Respublikasi hissalariga to‘g‘ri keladi. Biroq, so‘nggi, 15 yil ichida xalqaro savdo keskin o‘zgarishiga duch keldi, ya’ni bir tomondan savdo to‘siqlarini yengillashtirish va mamlakat ichidagi savdo rejimining liberallashtish bilan bog‘lasalar, ikkinchi tomondan Osiyo va Tinch Okeaniya mintaqasidagi mamlakatlari iqtisodiyoti eksportiga yo‘naltirilgan tarmoqlarining jadal rivojlanishi asosida ko‘rsatilmoqda[24]. O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi statistika agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda Respublika bo‘yicha transport tarmoqlarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 151825 milliard so‘mni 109,9 foizga 2025-yilda esa ushbu ko‘rsatkich 188270,8 milliardga tenglashib, o‘tgan yilgan nisbatan ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining transport xizmatlari 110,8 foizga o‘sgan.

Global pandemiya sabab, dunyo bo‘ylab transport xizmatlar bozoriga sezilarli darajada o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymadi. 2020-yilda Virusning tarqalishi va uning oldinini olish bo‘yicha ko‘rilgan keyingi chora-tadbirlar turli transport sohalarida uzilishlarga va iste’molchilarning xatti-harakatlarida o‘zgarishlari tufayli keskin kamaydi. Roskongress jamg‘armasi (Фонда Росконгресс) tahlilchilari Koronavirus davrida transport xizmatlari bozorida sayohat cheklovlari, jamoat transporti va avtotransport xizmatlarida yo‘lovchilarning talabi keskin pasayishiga turtki bo‘lganligini ta’kidlamoqda.

2022 yilda global pandemiyasidan keyin jahon iqtisodiyoti tiklash davom ettirib, 2021-2022 yillar davomida real YaIM 3,4 foizga, rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 2,7 foizga, rivojlanayatgan mamlakatlarda esa 4 foizga o‘sganligini ko‘rsatmoqda. Transport xizmatlari bozorida tashqi va ichki savdo yuklarining keskin kamayishi, yetkazib berish zanjirlarining murakkabligi va uzayishi sabab transport xizmatlari tarifining 2-3 barabar oshishi bilan kuzatiladi. Shuningdek, avia, temir yo‘l va boshqa transport xizmat ko‘rsatuvchi yirik kompaniyalarga inqirozga sabab bo‘ldi.

Global koronavirus yakunlanishi Jahon savdo hajmi 2,3 foizga o‘sishga erishildi, biroq Ukrainadagi urush va Rossiya havo hududining yopilishi natijasida havoda yuk tashish (tonna-kilometr)da 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 8 foizga kamayib, transport xizmatlar bozoriga iqtisodiy o‘sishni sekinlashtirdi [25]. Yevrostat

(cc) BY

ma'lumotlariga ko‘ra, 2022-yilning 11 oyida Yevropa ittifoqidan Rossiya Federatsiyasiga avtomobil transportidan yuk tashish 52,4 foiz, Rossiya Federatsiyasidan Yevropa ittifoqiga esa 56.5 foizga qisqargan [26].

Xizmatlar kundalik hayotimizning asosiy qismi bo‘lib, jamiyat va iqtisodiyotning son-sanoqsiz jihatlarini asoslaydi. Xizmat jamiyat ehtiyojlarini qondirish, muammolarni hal qilish va hayot sifatini oshirish uchun zarur bo‘lib, sog‘liqni saqlash, ta'lim, bank, axborot-kommunikatsiya, transport va boshqa turdosh sohalarining keng ko‘lamli tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Ular jismoniy shaxslar, yuridik tashkilotlar va muassasalar tomonidan taqdim etiladi, hamda, tibbiy maslahat, moliyaviy bitim yoki sayohat tajribasi kabi xilma-xil xizmatlarni taklif etadi.

Bugungi kunda kelib, xalqaro tashkilotlar, milliy institutlar va xorijlik olimlar tomonidan xizmatlarning ko‘plab tasniflari mavjud. Shulardan, Jahon savdo tashkiloti barcha turdagi xizmatlarni 12 ta sektorga ajratishni nazarda tutgan [27] bo‘lsa, iqtisodiy faoliyat turlarining xalqaro standart sanoat tasnifi (ISIC), hamda, Yevropa Ittifoqining iqtisodiy faoliyat turlarini statistik tasniflanishi (КДЕС/NACE) negizida 160 ta xizmatlarni 12 ta yirik guruhlarga bo‘lib chiqgan[28]. Xuddi shunday ko‘rinishda, Urugvay raundi xizmatlarni tasniflash sxemasini ishlab chiqadi, hamda 12 ta asosiy guruhdan iborat bo‘lgan 150 turdagi xizmatlarni [29] o‘z ichiga oladi. Transport xizmatlari yuqorida sanab o‘tilgan 12 ta asosiy guruhlarga kiruvchi yirik tarmoq sohadan biri hisoblanadi.

Xorijiy va mahalliy adabiyotlarda xizmatlarning asosiy xususiyatlari asosan 4 ta sifatini keltirib o‘tgan. Biroq, ilmiy adabiyotlarni izlash jarayonida, olimlarning fikr va mulohazalarini o‘rganib, quyidagi 1-chizmada xizmatlarning asosiy xususiyatlariga qo‘shimcha tarzda turli xillik va mijozlarning ishtiroki kabi sifatini ko‘rsatib o‘tilgan.



1-chizma: Xizmatlarning asosiy xususiyatlarining **6I – modeli [30]**

Yuqorida ta'kidlanganidek, xizmatlar iqtisodiyotning o‘ziga xos sektori bo‘lib, ularning mohiyatini anglash uchun oltita asosiy xususiyatni bir butun tizim sifatida ko‘rib chiqish lozim topildi. Bunda, xizmatlarning eng fundamental xususiyati nomoddiylik bo‘lib, tovarlardan farqli o‘laroq, xizmatlar jismoniy mavjud emas: ularga tegib yoki ushlab bo‘lmaydi. Ular o‘zaro ta'sirlar, harakatlar yoki chiqishlar orqali amalga oshiriladi. Aynan shu nomoddiylik xizmatlarning ikkinchi muhim xususiyatini — **ajralmaslikni** keltirib chiqaradi. Chunki xizmat moddiy mahsulot bo‘lmagani uchun uni oldindan ishlab chiqarib, omborga qo‘yib bo‘lmaydi: u ko‘pincha bir vaqtning o‘zida ishlab chiqariladi va iste'mol qilinadi. Masalan, shifokor bemorni ko‘rigandan,

(cc) BY

o‘qituvchi dars o‘tgandan aynan shu lahzada xizmat yaratiladi ham, iste'mol qilinadi ham. Xizmat ko‘rsatish jarayonida provayderni iste'molchidan ajratish juda qiyin, chunki ikkalasi jarayonning teng ishtirokchisidir.

Aynan shu ajralmaslik o‘z navbatida **mijozlarning ishtirokini** zaruriy qiladi. Mijozlar xizmat ko‘rsatish jarayonida passiv kuzatuvchi emas, balki faol rol o‘ynaydi — ularning o‘zaro aloqalari, so‘rovlari va ishtiroki orqali xizmat sifati va yakuniy natija shakllanadi. Bitta shifokorlik qabulida bemor qancha aniq ma'lumot bersa, tashxis shuncha to‘g‘ri bo‘ladi; restoranda mijoz qancha aniq buyurtma bersa, natija shuncha yaxshi bo‘ladi.

Mijozning faol ishtirok etishi va xizmatning inson omili bilan chambarchas bog‘liqligi esa **o‘zgaruvchanlikni** yuzaga keltiradi. Xizmatlar odamlarning o‘zaro ta'siri, atrof-muhit sharoitlari va boshqa nazorat qilib bo‘lmaydigan o‘zgaruvchilar tufayli sifat va ish jarayonida farq qilishi mumkin. Bir xil parkmaxer bir xil soch turmagi bilan ham turli mijozlarga biroz farqli natija berishi tabiiy, chunki har bir vaziyat noyobdir.

Bu o‘zgaruvchanlik, o‘z navbatida, xizmatlarning **turli xilligiga** asos bo‘ladi. Xizmatlar ko‘pincha shaxsiy imtiyozlar va muayyan talablarga moslashtirilgan yoki umumlashtirilgan bo‘ladi. Har bir mijozning ehtiyoji va kutishi turlicha bo‘lgani uchun xizmat ko‘rsatish tajribasi ham har safar o‘zgaradi. Masalan, bitta mehmonxonadagi ikki xona bir xil bo‘lsa-da, xizmat ko‘rsatish tajribasi har bir mehmon uchun turlicha bo‘lishi mumkin.

Nihoyat, barcha yuqoridagi xususiyatlar birgalikda xizmatlarning oltinchi xususiyatini — **tez buzilishini** tushuntiradi. Xizmatlar moddiy emas, bir lahzada yaratiladi va iste'mol qilinadi, har safar o‘zgaruvchan bo‘lgani uchun ularni kelajakda foydalanish uchun saqlash yoki inventarizatsiya qilish mumkin emas. Aviareysda bo‘sh qolgan o‘rindiq, mehmonxonada band bo‘lmagan xona, shifokorning bekor qolgan qabuli — bularning barchasi qaytarib bo‘lmaydigan yo‘qotishdir. Agar xizmat taklif qilingan vaqtda foydalanilmasa, uni keyinroq saqlash imkoni yo‘q.

Shunday qilib, xizmatlarning oltita xususiyati bir-biri bilan uzviy bog‘liq zanjirni tashkil etadi: nomoddiylik ajralmaslikni, ajralmaslik mijoz ishtirokini, mijoz ishtiroki o‘zgaruvchanlikni, o‘zgaruvchanlik turli xillikni keltirib chiqaradi, bularning barchasi esa xizmatning tez buzilish xususiyatini belgilaydi.

Xizmatlarning asosiy xususiyatlaridan kelib chiqib, raqamli dunyoning transport xizmatlarida quruqlik, temir yo‘l, havo va dengiz transport vositalarida raqamli vositalaridan foydalanish jarayonida insonlarga ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida yetib kelishi, tovarlar yoki ma'lumotlarni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirishni osonlashtirishda nazarda oladi. Transport xizmatlari iqtisodiy faoliyat, savdo va harakatchanlikni osonlashtirishda, turli geografik hududlarda jismoniy shaxslar, korxonalar va jamoalarni bog‘lashda muhim rol o‘ynaydi. Shunigdek, jamoat tranziti, yuk tashish, taksi xizmatlari, havo qatnovi, kuryerlik va yetkazib berish xizmatlari, logistika va ta’minot zanjirini boshqarishlar qamrab oladi.

Hozirgi vaqtda raqamli iqtisodiyotni samarali tashkil etish mamlakat internet-texnologiyalari sifati, aholining internetdan foydalanish ko‘nikma va bilimlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari dasturiy vositalarining ishlab chiqilganligi yoki mobil texnologiyalardan foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Amalda, jamiyatning raqamli hayoti sifatini yanada yaxshilashda raqamli texnologiyalardan foydalanish ularning farovonligi, unumdorligi va umumiy hayot sifatini oshirishga qaratilgan barcha jihatlarni belgilaydi. Transport xizmatlarida raqamli hayot sifatining ahamiyati transportning qulayligi, samaradorligi, barqarorligi va foydalanuvchi tajribasini yaxshilashga qaratilgan.

Har yili raqamli hayot sifati (Digital Quality Life - DQL) dunyo aholisining deyarli 90 foizini qamrab oladi. Raqamli hayot sifati (DQL) so‘rovi Surfshark kiberxavfsizlik tashkiloti tomonidan o‘tkaziladi va 121 mamlakatning raqamli farovonligini 5 asosiy mezon bo‘yicha baholaydi. Raqamli hayot sifati indeksining tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu ko‘rsatkichlar yillar davomida tez o‘sgan. Xususan, Yevropa mamlakatlari so‘nggi uch yil ichida yuqori ko‘rsatkichni band etib kelmoqda. Quyida 1-jadvalda Raqamli hayot sifati (DQL) talqiniga ko‘ra, 2025-yilda yuqori natijaga erishgan 20 ta

(cc) BY

davlatning raqamli hayot sifati ko‘rsatkichlari ifodalangan.

1-jadval

Global raqamli hayot sifati indeksi, 2025 [31]

№	mamlakatlar	**DQL indeksi besh mezoni**					DQL indeksi
		internet arzonligi	internet sifati	**elektron infratuzilma**	**elektron xavfsizlik**	**elektron hukumat**	
1	Finlandiya	0.10	0.08	0.91	0.95	0.88	0.79
2	Germaniya	0.11	0.07	0.96	0.95	0.94	0.75
3	Daniya	0.05	0.10	0.98	0.95	0.93	0.74
4	Shveytsariya	0.06	0.11	0.94	0.98	0.82	0.74
5	Fransiya	0.06	0.09	0.94	0.85	0.81	0.74
6	Ruminiya	0.10	0.10	0.88	0.97	0.82	0.72
7	Niderlandiya	0.04	0.10	0.92	0.99	0.91	0.72
8	Avstriya	0.07	0.08	0.88	0.95	0.86	0.72
9	Singapore	0.05	0.13	0.97	0.80	0.78	0.71
10	Lyuksenburg	0.07	0.09	0.95	0.48	0.97	0.71
11	Bolgariya	0.12	0.08	0.98	0.95	0.88	0.71
12	Estoniya	0.05	0.08	0.97	0.94	0.89	0.71
13	Shvetsiya	0.04	0.09	0.88	0.99	0.78	0.70
14	Janubiy Koreya	0.03	0.07	0.73	0.97	0.65	0.69
15	Yaponiya	0.06	0.07	0.93	0.87	0.90	0.69
16	AQSH	0.03	0.08	0.92	0.74	0.89	0.68
17	Isroil	0.05	0.09	0.90	0.76	0.85	0.67
18	Buyuk Britaniya	0.04	0.06	0.84	0.96	0.76	0.66
19	Ispaniya	0.03	0.08	0.97	0.54	0.97	0.66
20	Kanada	0.02	0.08	0.96	0.76	0.94	0.66

Yuqoridagi jadvalda 2025 yilda yuqori 20 ta mamlakatlarning raqamli hayot sifati ko‘rsatkichlari ko‘rsatilgan, hamda mamlakatlarda internet narxlari yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Biroq, elektron infratuzilma, elektron xavfsizlik va elektron hukumat deyarli barcha mamlakatlarda yuqori tempga ega ekanligini kuzatishimiz mumkin. Bu mamlakatlarning barcha tarmoq sohalarni raqamlashtirish uchun juda muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, raqamli hayot sifati qulaylik, ulanish, savodxonlik, huquqlar va transportga inklyuzivlikni oshirish orqali transport xizmatlarini raqamli iqtisodiyotga aylantirishda hal qiluvchi muhim rol o‘ynaydi. Raqamli transport yechimlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va boshqarishda raqamli hayot sifatini hisobga olgan holda, transport provayderlari foydalanuvchilarning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini qondiradigan va aqlli va transport vositalarining rivojlanishiga hissa qo‘shadigan ko‘proq

(cc) BY

foydalanuvchiga yo‘naltirilgan, samarali va barqaror transport tizimlarini yaratishi mumkin.

Raqamli hayot sifatining asosiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, raqamli dunyoning transport xizmatlarida, quruqlik, temir yo‘l, havo va dengiz transportida raqamli vositalardan foydalanish jarayonida ma'lumotni odamlarga qisqa vaqt ichida yetkazib berish, tovarlar yoki ma’lumotni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish mumkin. Transport xizmatlari iqtisodiy faoliyat, savdo va harakatchanlikni osonlashtirishda, turli geografik hududlarda jismoniy shaxslar, korxonalar va jamoalarni bog‘lashda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, u jamoat transporti, yuk tashish, taksi xizmatlari, havo transporti, kuryerlik va yetkazib berish xizmatlari, logistika va ta'minot zanjirini boshqarishni o‘z ichiga oladi.

Rivojlangan mamlakatlarning sanoatdagi o‘zgarishlar barcha mavjud infratuzilmani tubdan modernizatsiya qilishni, innovatsion loyihalarni yaratish va amalga oshirishga qaratilgan. Bunda, transport xizmatlarni raqamli iqtisodiyotga aylantirish evaziga sun'iy intellekt (Artificial Intelligence - AI), Buyumlar interneti (The Internet of Things - IoT), 5G texnologiyasi, katta ma'lumotlar (Bid Data), analitik ishlov berish, blokchain va yuqori ko‘rsatkichli hisoblash (High-Performance Computing - HPC) kabilardan foydalanib, aqlli va intelektual shahar (smart and intelligent city) barpo etish, zamonaviy innovatsion texnologiyalari bilan iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshlikni hamda, aholining turmush sifati va darajasini yaxshilash, faoliyatini avtomatlashtirish hisobiga ish jarayonlarini xarajatlarini kamaytirishga turtki bo‘lmoqda.

2-jadval

Transport xizmatlari raqamli iqtisodiyotga aylantirishning asosiy yo‘nalishlari

№	Yo‘nalishlar	Yo‘nalish xususiyatlari
1.	**Aqlli harakatchanlik yechimlar**	Ma’lumotlar, texnologiyalar va infratuzilmani transport tarmoqlarini optimallashtirish va umumiy harakatchanlik tajribasini oshirish uchun aqlli harakatchanlik yechimlarini amalga oshirish. Bunga aqlli transport tizimlari, real vaqt yo‘l-transport boshqaruvi va multimodal sayyohatni rejalashtirish bo‘yicha ilovalar kiradi.
2.	**Onlayn platformalar va raqamli savdo tizimlari**	Transport provayderlari, xizmat ko‘rsatuvchi foydalanuvchilarni va boshqa manfaatdor tomonlarni tashish ekotizimida joylashgan raqamli platformalar va bozor maydonlarini ishlab chiqish. Ushbu platformalar sayohat xizmatlarini yanada qulaylik yaratish, to‘lov va almashishni osonlashtiradi, bu sayohatchilar uchun yanada qulaylik va samaradorlikka olib keladi.
3.	**Raqamli integratsiyalashgan transport vositalari (CAVs)**	Xavfsizlikni yaxshilash, tirbandlikni kamaytirish va transportda foydalanish imkoniyatlarini oshirish. Ulangan va avtomatlashtirilgan transport vositalari atribut bilan harakatlanish uchun sensorlar, sun'iy razvedka va aloqa texnologiyalariga tayanadi.
4.	**Transportni elektrlashtirish va barqaror rivojlanish**	Issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, atrof-muhitning ta'sirini yumshatish va energiya samaradorligini oshirish uchun transportda elektrlashtirish va barqaror tajribalarni targ‘ib qilish. Bunga elektr transport vositalari (ElektTV), qayta tiklanadigan energiya manbalari va jamoat va xususiy transport parkida alternativ yoqilg‘ilarni o‘z ichiga oladi.
5.	**Ma’lumotlar tahlili va prognozlash**	Transport operatsiyalarini optimallashtirish, aktivlardan foydalanishni yaxshilash va qarorlarni qabul qilish jarayonlarini kuchaytirish uchun katta ma'lumotlar

(cc) BY

		tahlilini boshqarish. Ma'lumotlarga asoslangan yondashuvlar transport xizmatlarini, infratuzilmani va resurslarni yaxshiroq rejalashtirish, prognozlash va boshqarish imkonini beradi.
6.	**Last-mile logistika yechimlari**	Shahar hududlarida shahar kontsenkasi, logistika samaradorligi va mijozlar tajribasini hal etadigan innovatsion-chaqiriqni etkazib berish echimlarini rivojlantirish. Bunga tovarlar va xizmatlarni tezroq, yashil va tejamkor etkazib berishni osonlashtirish uchun dronlar, robotlar va mikrofilmal harakatchanlik echimlarini o‘z ichiga oladi.
7.	**Raqamli infratuzilma va tarmoqlanish (connectivity)**	Raqamli infratuzilmani va ulanishni transport tizimlarida chaqirish tizimida tarqatmaslikni qo‘llab-quvvatlash uchun raqamli infratuzilma. Bunga real vaqt rejimida aloqa va transport vositalari va foydalanuvchilar o‘rtasida real vaqtli aloqa va ma'lumotlarni almashish uchun 5G texnologiyasini kengaytirish va Wi-Fi ulanishi kengayadi.
8.	**Normativ huquqiy va siyosiy asoslar**	Raqamli transport ekotizimida innovatsiyalar, raqobat va hamkorlikni qo‘llab-quvvatlaydigan qo‘llab-quvvatlovchi va siyosat asoslarini yaratish. Bunga me'yoriy to‘siqlarni hal qilish, ma'lumotlar maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlash va turli manfaatdor tomonlar o‘rtasida o‘zarolashish va standartlar va standartlarni ilgari surish kiradi.

Oxirigi yillarda, jahonda yuqori sifatli va xavfsiz hayot kechirishda bilimga asoslangan raqamli ma’lumotlar iqtisodiyotidan foydalanadigan innovatsion va ekologik sanoatga ega, hudud va infratuzilmadan oqilona foydalanishni ta’minlaydigan samarali davlat boshqaruvi hamda fuqarolari to‘liq foydalanadigan axborot jamiyatiga ega zamonaviy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda davom etayotgan “Sanoat 4.0” sanoat inqilobi g‘oyalarining timsoli nafaqat ishlab chiqarishni va qolaversa aqlli ishlab chiqarishni boshqacha qilib aytganda, raqamli iqtisodiyotning axborot subyektiga aylantirish asosida shakllantirish taqozo etmoqda.

Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarning xizmat ko‘rsatish bozorlari istiqbolli yo‘nalishlari sifatida IT-autsorsing (ma’lum bir tashkilotning ba’zi funksiyalarini yuqori texnologik, malaka xodimlar va mutaxassislarga ega bo‘lgan boshqa tashkilotga topshirish uslubi) va kraudsoursing (crowdsourcing – axborot texnologiyalar yordamida ixtiyoriy ravishda subpudrat ishining bir turi sifatida o‘z ijodiy qobiliyatlari, bilimlari va tajribasidan foydalanish uchun keng doiradagi odamlarni innovatsion ishlab chiqarish faoliyatining ayrim muammolarini hal qilishga jalb qilish) lardir.

Transport xizmatlarini raqamlashtirish va yagona raqamli makonni shakllantirish hisobida shart-sharoitlarni yaratish turli mintaqaviy, milliy va millatlararo tashkilotlar hamda hamdo‘stliklar doirasida davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Zamonaviy bozorlarning transport korxonalardan doimiy ravishda o‘zgarish, o‘sish va innovatsiyalarni talab qiladi; bunday sharoitda transport kompaniyalar o‘z pozitsiyalarini mustahkamlash va imkoniyatlarini kengaytirish uchun ishonchli aloqalarga muhtoj bo‘ladi. Bu dasturiy ta'minotni ishlab chiqish bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar va onlayn investitsiya platformasi ma’murlari o‘z mijozlarining strategik hamkorlariga aylanadilar.

Natijada, transformatsiyaning ushbu asosiy yo‘nalishlarini qamrab olgan holda, transport sanoati raqamli iqtisodiyotda samaradorlik, barqarorlik va innovatsiyalar uchun

(cc) BY

yangi imkoniyatlarni ochib berishi, pirovardida transport xizmatlari sifatini yaxshilash va jismoniy shaxslar va jamoalar uchun umumiy mobillik tajribasini oshirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xizmatlar mijozlar tajribasini oshirish, logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvini qo‘llab-quvvatlash, xavfsizlik va xavfsizlikni ta'minlash, axborot va aloqani osonlashtirish, foydalanish imkoniyati va inklyuzivlikni rag‘batlantirish, qo‘shimcha qiymat takliflarini taqdim etish, ekologik barqarorlikni rag‘batlantirish orqali transport sanoatida muhim rol o‘ynaydi. va iqtisodiy o‘sish va rivojlanishni rag‘batlantirish. Xizmatlar transport tizimlarining umumiy samaradorligi, samaradorligi va barqarorligiga hissa qo‘shadi, yo‘lovchilar, korxonalar va jamoalarga foyda keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida : Farmon, PF–158-son, 2023-yil 11-sentabr // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida : Farmon. – Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” : Qaror, PQ–59-son, 2023-yil 16-fevral // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2023.
4. “Improving the efficiency of transport and logistics systems in Uzbekistan” // *Review of law sciences*. – 2023. – № 1. (https://review.uz/en/journals/view/1-2023)
5. “Transport logistics and digital transformation issues” // *Review of law sciences*. – 2023. – № 7(19). (https://review.uz/en/journals/view/7-19-2023)
6. Голиков, Е. А. *Маркетинг и логистика* / Е. А. Голиков. – Москва : Издательский дом «Дашков и К», 2016. – 412 с.
7. Pirniyazova G. TRANSPORT XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO ‘LLARI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. A7. – C. 701-703.
8. Raximov, A., Ochilov, M. Qashqadaryo viloyati aholisiga transport xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishini trend modellar asosida baholash // *Economics and Education*. – 2021. – № 4. – B. 396–402.
9. Smith, A. *The Wealth of Nations*. – Vol. 11937. – 1937.
10. Edgeworth, F. Y. Alfred Marshall. *Principles of Economics* // 1891. – Pp. 611–617.
11. Ryabova, E. N. Theoretical approaches to the content of the concept “service” // *Service Plus*. – 2010. – № 3. – Pp. 14–19.
12. Kotler, P. *A Framework for Marketing Management*. – India : Pearson Education, 2003.
13. Rodrigue, J.-P. *The Geography of Transport Systems*. – London : Routledge, 2020.
14. Martens, K. *Transport Justice: Designing Fair Transportation Systems*. – London : Routledge, 2016.
15. Handy, S. L. Accessibility-vs. mobility-enhancing strategies for addressing automobile dependence in the US. – 2002.
16. Шинкаренко, В. Г. Автотранспортная услуга: сущность, характеристики и особенности // *Экономика транспортного комплекса*. – 2011. – № 18. – С. 7–21.
17. ГОСТ Р 51006–96 «Услуги транспортные. Термины и определения» : Государственный стандарт РФ (утв. постановлением Госстандарта России от 25.12.1996 № 703)
18. Qo‘ziboyev, B. H. Transport xizmatlarini takomillashtirish yo‘llari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. (https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/15_Quziboyev.pdf)
19. Yousaf, A., Socci, C., Pretaroli, R., Severini, F. Economic and environmental impact of transport sector on Europe economy // *International Economics and Economic Policy*. – 2018. – DOI: 10.1007/S41685-017-0066-9.
20. Transport sector economic analysis // Joint Research Centre (European Commission). – European Commission Scientific Publications Office. (https://joint-research-centre.ec.europa.eu/scientific-activities-z/transport-sector-economic-analysis_en)
21. Banister, D. Inequality in transport. – 2018.

(cc) BY

22. Global logistics market report, forecast // Research and Markets.
23. Keller, A. V., Okolnishnikova, I. Yu. Marketing analysis of key trends in the development of the transport and logistics services market // *Bulletin of the South Ural State University. Series: Economics and Management*. – 2022. – Vol. 16, No. 4. – Pp. 141–152.
24. Derevtsova, V. P., Van, D. Development of the global transport services market // *Alley of Science*. – 2020. – Vol. 2, No. 4. – Pp. 84–90.
25. International Transport Forum. *Key Transport Statistics 2023* // OECD/ITF. – Paris, 2023. (https://www.itf-oecd.org/sites/default/files/docs/key-transport-statistics-2023.pdf?utm_source=chatgpt.com)
26. Logirus. Эксперт: рынок транспортно-экспедиторских услуг 2022 год завершил в плюсе // Logirus. (https://logirus.ru/news/transport/ekspert-_rynok_transportno-ekspeditorskikh_uslug_2022_god_-zavershil_v_plyuse.html)
27. World Trade Organization. *Services* // WTO. (https://www.wto.org/english/tratop_e/serv_e/serv_sectors_e.htm).
28. The role of transport sector in economic development // TGU Electronic Journal. – 2014. (https://pnu.edu.ru/media/ejournal/articles-2014/TGU_5_357.pdf).
29. Тихонова, Н. Б. ВТО: либерализация международной торговли и возможности экономического развития. – 2016. – 210 с.
30. Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar asosida ishlab chiqilga
31. Digital Quality of Life Index (DQL) // Surfshark Research. (https://surfshark.com/research/dql).

(cc) BY